

ONA TILIM – FAXRIM G`URURIM

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti
O`zga tilli guruhlarda rus tili yo`nalishi
2-bosqich talabasi
Saparova Feruza*

Annotatsiya: *Har birimiz davlatga bo`lgan e`tiborni mustaqillikka bo`lgan e`tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz , shuhday qadrlashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak.*

Sh. M. Mirziyoyev.

KIRISH

Har bir millatning o`z ramzlari bor. Qisman ramzlar davlatlarni bir biridan ajratib turish vazifasini bajaradi . Til ham xuddi shunday davlat ramzlari qatorida turadi . Chunki til bo`lmasa bu millatning kimligi-yu , kelib chiqishini hech kim bilmaydi . Zamon rivojlangani sayin til ham rivoj topib boradi . Ya`ni yangi so`zlar kirib , so`z boyligi ortadi va shu bilan bir qatorda tillar o`lishi ham kuzatiladi. Ma`lumotlarga qaraganda , dunyoda olti – yetti mingga yaqin til bor. Shulardan uch mingi jonli tillarni tashkil etadi , ya`ni muloqot vazifasini bajaradi . Til insonlarning o`zaro muloqot qilish vazifasini bajaradi , ijtimoiy – ma`naviy hayotida ro`y beradigan barcha bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi . Nima uchun “Til - millat ko`zgusi” deyiladi ? Chunki til bo`lmasa jamiyat shakllanmaydi . Til esa o`sha xalqning kimligini ko`rsatib beradi. Yuqorida attganimizdek, davlat haqiqiy davlat bo`lishi uchun eng avvalo, o`z tiliga ega bo`lishi kerak . Xuddi shunday bizning jannatmakon O`zbekistonimizda ham mustaqil bo`lish uchun ilk qadam “O`zbek tiliga – davlat tili maqomining berilishi” bilan boshlangan . Bu qadam 1989- yil 21- oktabrda birinchi prezidentimiz Islom Abdug`aniyevich Karimov tomonidan qo`yilgan. Shu kundan boshlab barcha ish qog`ozlari va ommaviy axborot vositalari o`zbek tilida yuritila boshlagan. Bizning yutug`imiz shundan iboratki , dunyoda olti mingga yaqin til bo`lsa, shundan yuzga yaqini davlat tilidir . O`zbek tili ham shu tillar qatorida davlat tili sifatida yuqori o`rinlardan joy oladi. O`zbek tili oltoy tillar oilasiga kiruvchi qarluq lahjasiga mansub . Bu til qadim tarixga ega turkiy til hisoblanadi va necha ming asrlardan beri sayqallanib, rivoj topib bormoqda . Til – muqaddas , chunki insondan keyin til va u qoldirgan meros o`lmaydi . Masalan , Mir Alisher Navoiy bobomiz ham xususan turkiy til(o`zbek) da qalam tebratganlar. Mana besh asrdan oshdiki u kishi yozgan asarlar o`z jozibasini hali ham yo`qotgani yo`q . Bunga sabab Navoiy tilni juda go`zal ishlata olgan va nozik tomonlarini bilgan . Biz faqat tilimiz ravnaqiga Navoiynigina emas , balki Mahmud Koshg`ariy , Ahmad Yassaviy , Ahamad Yugnakiy , Lutfiy, Bobur , Furqat, Ogahiy , Qodiriy , Usmon Nosir kabi buyuk ijodkorlarimizning o`lmas ma`naviy meros bo`lib qolgan asarlarini ham misol keltirish mumkin.

Davlatimizda tilga alohida e`tibor beriladi masalan, 2019-yil O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “O`zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va mavqeyini tubdan oshirish

chora - tadbirlari to`g`risida”gi farmoni e`lon qilindi va Vazirlar Mahkamasi tuzilmadsi huzurida O`zbek tilini rivojlantirish departamenti tuzildi . O`zbek tilini rivojlantirishni ta`minlash masalalari bo`yicha maslahatchi lavozimi joriy etildi . 2020- yilda esa “Mamalakatimizda o`zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora - tadbirlari to`g`risida”gi qarorini imzoladi va 2020- 2030- yillarda o`zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiysi tuzildi . Bularning barchasi o`zbek tilini rivojlantirish uchun qilinayotgan ishlardir. Til rivojlanmasa , u o`ladi . Keying yillarda o`zbek tili ham “hayoti xavf ostida turgan “tillar qatoridan joy olmoqda . Tilimizning o`lmasligi uchun biz yoshlar uni axborot – kommunikatsiyalar tiliga aylantirishimiz kerak . Bu degani hozirgi rivojlanib borayotgan davrda odamlar emas gadgetlar , dasturlar va loyihalar so`zlamoqda . Agar biz ham butun dunyoga foydasi tegadigan dasturni o`zbek tilida yaratsak, tilimiz hech qachon o`lmaydi . Chunki o`sha dasturdan foydalanish uchun ham o`zbek tilini o`rganishadi. Mutaxassislarining so‘zlariga qaraganda, bugungi kunda har ikki xtaftada bitta til yo‘qolib bormoqda. Bu o‘z navbatida o`sha tilda so‘zlashuvchi xalqlarning yo‘qolishini anglatadi. Chunki yangi texnologiyalarning rivojlanishi tufayli ayrim xalqlar o‘z tillaridan ko‘ra zamonaviy tillardan foydalanishga majbur bo‘lmoqda. Bugun Internet tilining 81 foizi ingliz tiliga to‘g`ri keladi. To‘g`ri, avvallari ham tillar paydo bo‘lgan, muammolada bo‘lib, ma'lum vaqtadan so‘ng yo‘q bo‘lib ketgan. Lekin hozirgidek tillarning jadallik bilan yo‘qolishi tarixda kuzatilmagan. Lingvist olimlarning fikricha, yana 25 yildan so‘ng hozir muomalada bo‘lgan tillarning o‘ntasidan bittasi saqlanib qolar ekan. Eng ko‘p tilli mamlakat sifatida Hindiston ko‘p bora aytildi. Ikkinchisi o‘rinda esa ko‘plab til va shevada so‘zlashuvchi Papua — Yangi Gvineya turadi. Sayyoramizda eng ko‘p aholi so‘zlashadigan til sifatida xitoy, ingliz va ispan tillari tan olingan. Birinchi o‘nlikka hindi, bengal, arab, portugal, nemes, rus va yapon tillari ham kiritilgan. Olimlarning fikricha, til yashab qolishi uchun undan kamida bir millon kishi so‘zlashishi kerak ekan. Biroq bunday tillar dunyoda atigi 250 tadir. O`zbek tili ham mana shu 250 taning ichida ekani quvonarli, albatta. Qachonki bolalar o‘z ona tillarida o‘qishni to‘xtatsa , o`sha til yo‘qolib ketish arafasiga kelib qoladi. Tillarni saqlab qolish bu o`sha xalqning madaniyati, urf-odati, rasm-rusumlarining saqlanib qolinishini anglatadi. Chunki, xalq taqdiri til taqdiri bilan bevosita bog‘liq. Til har bir millat madaniyatining o‘zagi ekanligini unutmasligimiz lozim. O`zbek tili turkiy tillarning uch tarmog`i –qarluq qipchoq va o`g`uz lahajalarini birlashtirgan , jahonning eng yirik ellik tilidan biri hisoblanadi . yana quvonarlisi shundaki , jahonning 70 ga yaqin universitetlarida o`zbek tili va adabiyoti fani o`qitiladi . hozir biz foydalanayotgan o`zbek tili XX asrlarda shakllana boshlagan va bu tilga Farg`ona , Namangan va Toshkent shevalari asos qilib olingan . Bu til avvallari “sart ” tili deb nomlangan . o`tgan asrlarda esa bu so`z o`zgartirilib , o`zbek aholisi tili deb kelinadi . Shu kungacha o`zbeklar uch xil yozuvdan foydalanishgan: lotin , arab va krill yozuvlari. Shuni ta`kidlash kerakki, lotin tili hozirda o`lik tillar qatorig kiradi .

Abdulla Avloniyda shunday gap bor:” Har bir millatning dunyoda borligini ko`rsatadirgan oynai jahoni tili va adabiyotidir. Milliy tilni yo`qatmak millatning ruhini yo`qatmakdir .” Millat ruhi yo`qolsa millat ham o`z- o`zidan yo`qoladi. Til shunchaki

so`zlashuv vositasi sifatida emas, Vatanga muhabbat , ajdodlarga hurmat , milliy iftixor sifatida qarash kerak . Chunki , til bor bo`lsa millat barhayot.

Gullasin Vatanim, yashnasin elim,
Baxt-u saodatdan yayrasin dilim,
Armoni yo‘q inson bo‘lay dunyoda,
Dilim quvonchini so‘ylasim tilim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

10- sinf o`zbek tili darsligi;
Tilgov.uz;
News live.uz;
<https://kun.uz/35715601?q=%2Fuz%2F35715601>;